

Erkin A'zamning "Kechirasiz, o'rtoq muallim" asarida ironik mazmun ifodalash usullari tahlili

Tursunova Sojidaxon Axmadjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Jurnalistika fakulteti Lingvistika: o'zbek tili
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: maqolada ironiya, uning ifodalanish usullari, ironiyaning turlari haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, Erkin A'zamning "Kechirasiz, o'rtoq muallim" asari tahlilga tortilgan. Maqolada asarda uchraydigan ironiyalarga alohida to'xtalib, ular ironiyaning qaysi turi ekanligi, ironiyani yuzaga chiqarishda qaysi usullardan foydalanilganligi alohida e'tirof etilgan. "Kechirasiz, o'rtoq muallim" asarida uchraydigan ironiyalar, asosan, leksema yoki frazemalar orqali ifodalangan. Ironik mazmun ifodalashning ko'proq piching, kesatq, mazax, kulgi, shama kabi vositalarini uchratishimiz mumkin. Ironiya turlaridan gradual ironiya qo'llanilganiga guvoh bo'ldik. Maqolada yuqorida aytilgan barcha fikrlarga namunalar keltirilgan. Josus, matematik, faylasuf, ermak, otamlashmoq va yana boshqa bir qator leksemalar yordamida ironik mazmun ifodalashning qaysi usullari yuzaga chiqqanligi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ironiya, ironik mazmun, gradual ironiya, piching, kesatq, istehzo, kinoya, konsultatsiya, mazax, josus, matematik, faylasuf, jinoyatchi, ermak, otamlashmoq, sarkazm, martaba, sazovor, laqab, general va hokazo.

Ironiya – ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik o'ziga xos yo'sinda tahlilga torta oladigan unsurlardan biri hisoblanadi. Asarda ironik mazmun ifodalashning turlari juda ham ko'p. Biz Erkin A'zam asarlarida uchraydigan ironiya va ular yuzaga chiqqan ironik mazmunni tahlil qilishga harakat qildik. Dastavval ijodkorning "Shaytonchalar ko'chasi", "Fayzining amakisi" asarlarini tahlilga tortgan edik. Bu safar "Kechirasiz, o'rtoq muallim" asarida ironik mazmun ifodalash usullari tahliliga to'xtalmoqchimiz.

O'qituvchilardan Turna piyon araq ichadi, Safarov sigaret chekadi, Turobadze kutubxonachi qiz bilan yuradi, Josus Hojiqulov "matematik"ni yigirma bir tarsaki urgan... va hokazo va hokazo

Lekin baribir dars oxiridagi nasihat pallalarida ular qo'llarini stol chetiga tirab, qo'ng'iroq chalinguncha "O'qituvchining qilganini emas, aytganini qil!" deya o'git berishadi.

Biz – men, faylasuf Umar, "matematik" Akbar esa ularning aytganini emas, qilganini qilamiz: ichamiz, chekamiz; men Risolat bilan, Umar Ozoda bilan Akbar Malika bilan yuradi...¹

Ko'rinib turganidek ironik mazmun ifodalash usullari turli xil. Yuqoridagi parchada ham ularning ayrimlariga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Turna piyon", "Turobadze", "Josus Hojiqulov" kabi leksemalar vosita piching ifodalangan. "Piching – birovning shaxsiga tegish, g'ashini keltirish, masxaralash uchun aytilgan ilmoqli gap; qochirim, qochiriq".² Piyon deyilishiga sabab uning ichkilikka ruju qo'yganida, "Turobadze" hammaning ismiga adze birligini qo'shib aytgani uchun bu o'ziga ham "taqab" qo'yilgan. Hojiqulov esa o'z ishi qolib doimo boshqalarning ortidan "josuslik" qilish bilan ovora, shu sababli bu "unvon"i uning ismiga aylangan. "Josus arabcha so'zdan olingan bo'lib, ayg'oqchi; xufiya; xabarchi degan ma'nolarni bildiradi. Josus – biror davlat haqida maxfiy ma'lumot to'plash bilan shug'ullanadigan shaxs; ayg'oqchi, shpion".³ "Josus Hojiqulovni" sarkazm namunasi sifatida olishimiz ham mumkin. "Sarkazm yunoncha sarkasmos, sarkaro so'zlaridan olingan bo'lib, go'shtni nimgalayman, uzib, yulib olaman degan ma'nolarni bildiradi. Sarkazm –

¹ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 34.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006. – B. 268.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 109.

satirik tasvirda fosh etuvchi murosasiz kulgi, istehzoli ta'na asosiga qurilgan fikr-mulohaza; badiiy uslub vositalaridan biri".⁴

Bu parchada kinoya ham mavjud bo'lib, "nasihat pallalari" birikmasi orqali ifodalangan. Shu bilan bir qatorda "o'git" berishlari ham kinoya ostiga olingan.

"Faylasuf Umar" va "matematik Akbar" birlarida esa shamani kuzatishimiz mumkin. "Faylasuf yunoncha philosophos so'zidan olingan bo'lib, donolikni sevuvchi degan ma'noni bildiradi. Faylasuf – 1. Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug'ullanuvchi olim, mutaxassis. 2. Donolar kabi muhokama yurgizadigan; donishmand".⁵ Faylasuf so'zi orqali Umarning ko'proq kitob o'qishiga shama qilingan. "Matematik Akbar" birikmasida esa shama bilan bir qatorda, antifrazani ham kuzatish mumkin. Antifraza so'zni tamoman aks ma'noda qo'llash. "Matematik – matematika olimi, mutaxassisi".⁶ "Matematik Akbar" deya kesatiq qilinishiga sabab Akbar matematika tushunmaydi, mutlaqo bilmaydi, bahosi ham doimo "ildiz ostida 4". Bu birikmada matematik so'zi aks ma'nosida, ya'ni matematikani umuman bilmaydigan inson ma'nosida qo'llanilgan.

Ana, endi tamom! Boshlandi: "Sizlar undiq, sizlar bundiq... O-o-o, bizlar!.." Nasihat fani bo'lganida, ehtimol, bularni eshitgan hech kim, hatto ikkichi Qosimov ham "4" olmas edi...

*"She'r... Risolat... she'r... Risolat..."*⁷

Nasihat fani deya ustozlarining dars o'tish o'rniga o'zlari amal qilmaydigan gaplarini aytib "nasihat" qilishlariga shama qilinyapti. Ustozlarining o'zlarini oqlash usullari ham ajoyib: "Ustozingni aytganini qil, qilganini qilma".

*Demak, uch raqami qarshisini men to'ldirishim kerak, shekilli. Doskadagilarni, shubhasiz, Hojiqulov topgan – uning xati. Aftidan, navbatdagisini hech kim, hatto Risolat ham bilmagan ko'rinadi. Shuning uchun oxirgi, "hurmatli nomzod" – mendan so'rayotir. Hamisha shunday: hech kim aytolmaganini mendan so'raydi.*⁸

"Hatto Risolat ham bilmagan ko'rinadi" deb Risolatga urg'u berilishidan bilib olishimiz mumkinki, Risolat sinfdagi eng a'lochi o'quvchi. Nima sababdan Hojiqulov sinfdagi hech kim, hatto eng a'lochi o'quvchi ham bilmagan savolning javobini bizning qahramonimizdan so'rayapti. Budan ham bilib olishimiz mumkinki, bu ishi bilan "hurmatli nomzod"ga kesatiq qilyapti.

*– Qani, o'rtoq Normatov, martabalar muborak bo'lsin! – deya kinoyali tirjaydi. – O'zingiz tengi o'quvchilarga dars berish uchun kim huquq berdi sizga? – Dars emas, o'rtoq muallim, shunchaki... Turobov muallimimizning ishlari bor ekanmi, mendan iltimos qildilar...*⁹

Bu parchada ham kinoyaning go'zal ko'rinishiga guvoh bo'lib turibmiz. O'qituvchisining "ishi" chiqib qolganligi vajidan o'zining sinfdoshlariga dars o'tayotgan Normatovni ustozlik martabasi bilan qutalayotganidan buni bilishimiz mumkin. Vaholanki, o'qituvchining nima "ishi" chiqib qolganini bu muallim ham juda yaxshi biladi. "Martaba arabcha so'zdan olingan bo'lib, daraja, bosqich; qadr-qimmat, obro'; mavqe, o'rin degan ma'nolarni bildiradi. Martaba – 1. Jamiyat o'rtasida erishilgan obro', e'tibor, nufuz. 2. Mansab, lavozim, amal".¹⁰

– Siz keting! Nima qilasiz birovlarning darsiga poyloqchilik qilib? Dars uchun kerak bo'lsa Turobovning o'zi javob beradi!

– Mah-ma-da-na! Ho' Turobovning tirrnchasi-ey!

– Ko'zimdan yosh chiqib ketay dedi.

– Chiqing, chiqib keting!

*– Xo'p, domlajon, uzr! Siz aytasiz-u!.. – Hojiqulov shubhali tirjayib qo'l qovushtiradi. Uning bu holati go'yo xo'jasi qarshisida qulluq qilayotgan qulni eslatadi. – Biz-ku chiqib ketamiz, ammo keyin siz ham qolmaysiz – maktabdan chiqib ketasiz o'sha Turobovingiz bilan!..*¹¹

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006. – B. 450.

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 4-tom. 2006. – B. 320.

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 556.

⁷ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 34.

⁸ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 38.

⁹ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 39.

¹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 548.

¹¹ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 40.

Bolaning o'qituvchiga bu qadar jahl bilan istehzoli gapirishiga qaraganda, bu o'qituvchida alami borligi sezilib turibdi. Uning so'zlaridan ko'rinib turibdiki, bu o'qituvchi nuqul boshqalarning ishiga burnini suqib suqib yuradi, boshqalarning aybini ochishni yaxshi ko'radi. Tirnoq ostidan kir qidiruvchilardan, ismi jismiga monand "Josus Hojiqulov". Hojiqulovning "domlajon" deya kesatq qilishidan bu o'quvchidan bu ishi uchun yaxshigina o'ch olmoqchi, maktabdan chiqarib yubormoqchi. Lekin nimaga ishonib bunday shama qilyapti? Demak, bu o'quvchi ko'p bor "jinoyat ustida qo'lga tushgan" ko'rinadi. Biroq maktabdan chiqarib yuborish Hojiqulovga nasib etarmikin?!

Hojiqulov Safarovning "smirno"sini eshitmaganday shalpayib, sinf jurnalini go'yo birov tortib olishidan qo'rqan kabi mahkam ko'kragiga bosganicha, dars yakunlanishining barcha rasm-rusumlarini unutib, katta-katta qadamlar bilan tez yurib baland ko'k eshikdan chiqib ketadi...

Qo'ng'iroq chalinguncha sinfda qahqaha tinmaydi.¹²

Keltirilgan yuqoridagi parchada o'qituvchining doimiy odatlarini tark etib, "dars yakunlanishining barcha rasm-rusumlarini unutib" tezlik bilan chiqib ketishiga shama qilinyapti. Ironik mazmun ifodalashning unumli usullaridan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu holat bejiz emas, albatta, doim o'quvchilarning "aybini" izlab yuruvchi Hojiqulov ana o'quvchilardan birining savoliga yetarli javob berolmay biroz mulzam bo'ldi, axir.

Bu kishi – darsning muqaddimasini hamisha shunday boshlagani uchun "Kvadrat" laqabiga sazovor bo'lgan o'qituvchimiz Asadov. U "i" unlisiga urg'u berib, tojik talaffuzida gapiradi. Bundan tashqari, ikki gapning birida "o'rtoqlar", "oshino" so'zlarini qo'shadi. Akbarning sanashicha, "o'rtoqlar"ni bir soatda 148 marta ishlatganmish. "Hoy, matematik bunchalik murakkab hisobni qandoq qilib chiqarding?" deb hazillashib qo'yaman unga.¹³

Bu jumlada ham shamaning yana bir ko'rinishi namoyon bo'lgan. Axir, matematikadan bahosi doimiy ravishda "ildiz ostida 4" bo'lgan "matematik"ning bunday murakkab hisobni amalga oshirgan juda ajablanarli. Bu bilan Akbarning matematikani yaxshi bilmasligiga ishora qilingan. Bundan tashqari, "sazovor bo'lgan" leksemasida ham shama namoyon bo'lgan, chunki bu leksema ijobiy ma'nodagi so'z hisoblanadi. Uning zamirida biror narsaga erishish ma'nosi yotadi. "Sazovor forscha so'zdan olingan bo'lib, mukofot, mukofotga loyiq degan ma'nolarni bildiradi. O'z xizmati, sa'y-harakati, xulq-atvori bilan hurmat-e'tiborga, tahsinga, unvonga, tuhfa-tortiqqa arziydigan; loyiq".¹⁴ Yuqoridagi qahramonimiz Asadov esa laqabga sazovor bo'lmoqda. "Laqab – biror xususiyatiga ko'ra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo'shimcha nom; shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olingan nom".¹⁵ Asadov "dars muqaddimasini hamisha shunday boshlagani uchun" kvadrat deya masxara qilinmoqda.

U voleybolni yaxshi o'ynaydi. Safarovga havasi keladi. Safarov esa kemshik tishlari orasidan chirt etkizib tupuradi-da, "O'ylama, men tirik ekanman, sen bolaga o'rin yo'q!" deydi. Bilmadim, Akbar bechora endi nima qilar ekan... O'zi yaxshi bola-yu, biroz qo'rqoq-da: Hojiqulov ura-ura "mulla" qilib qo'ygan. U hatto o'qrayib qarasa ham, qo'llarini bir biriga qovushtirganicha, atay qimtingan holda g'alati tovush bilan "Birr matta kechiring, o'rtoq muallim!" deya shang'illab yuboradi. Albatta, bu "kechirim" zamirida alam va kinoya bor...

Akbar – mening uchinchi raqamli "general"im. Hojiqulov yo'q joylarda g'oyat jur'atli: Risolatga maktubimni yetkazishmi, "prima" topib kelishmi, xullas, so'zimizni yerda qoldirmay bajaradi. Umar uni "voobshche-to, molodes paren - poslushniy" deb maqtaydi.¹⁶

Avvalgi parchadan farqli ravishda ushbu parchada antifrazaning go'zal namunasiga guvoh bo'lamiz. Antifrazada ham kesatish, piching, masxaralash kuchli ifodalanadi. Antifraza orqali so'zning butunlay teskari ma'nosi ifodalanadi. Parchada general so'zi orqali butunlay teskari ma'no ifodalanyapti. "General lotincha generalis so'zidan olingan bo'lib, umumiy; bosh, oliy degan

¹²Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 41.

¹³ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 42.

¹⁴O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006. – B. 421.

¹⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 492.

¹⁶ Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 43.

ma'nolarni bildiradi. Oliy qo'mondonlik tarkibiga beriladigan harbiy unvon".¹⁷ Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, mard, jasur, qahramon inson. Lekin general deb ta'riflanayotgan Akbar aslo unday emas, u juda ham qo'rqqoq. Chunki "Hojiqulov ura-ura "mulla" qilib qo'ygan". Hatto uning qarashidan ham qo'rqadi. Shunday qo'rqqoq bolaning general deb atalishi antifraza yuzaga kelishi uchun asos bo'lmoqda.

Bu yoqdan biz luqma otamiz:

- *Uning o'zi "matematik" –da, G'affor Nuriyevich!*

Shunday demaysizlarmi! Obbo, mulla Akbar-ey!.. Ha bo'lmasa, bu yog'ini bizning mashhur kimyogar Qosimov hal qilib berar?..

"Mashhur kimyogari"dan ham, odatdagidek, hech sado chiqmagach G'affor Nuriyevichning jahli qo'ziydi va pardama-parda ko'tarilib boruvchi ovozda doskadagilarga birin-birin zarda qiladi:

- *O'tiring!*

- *Keting!*

- *Yo'qoling!*

- *Fayziyeva, o'zingiz chiqib hal etmasangiz bu uch pahlavonning tishi bir shaftoliga o'tmadi!*

"Lamarg" – Salimovning laqabi. Aslida, Salimov bu so'zni Qosimovdan so'rasa, u doim "Lafarg" deydi, sira yodida saqlolmaydi. Shunda Salimovning jig'ibiyroni chiqib baqiradi: "Lamarg!.."

Ifodalanayotgan ironik mazmun asarga o'zgacha ruh baxsh etgan. Yuqoridagi parchalarda "matematik" deya shama qilinayotganiga to'xtalgan edik, ushbu parchada esa "mashhur kimyogar" birikmasining tahliliga ham to'xtalib o'tamiz. "Kimyogar arabcha-forscha so'zdan olingan bo'lib, kimyo bilan shug'ullanuvchi degan ma'noni bildiradi. Kimyo fani bo'yicha mutaxassis, olim; kimyo sanoatida ishlovchi shaxs".¹⁸ Kimyo faniga oid savolga "mashhur kimyogar" Qosimov javob berolmaganidan bilishimiz mumkinki, bu ham piching yoki masxaraning bir ko'rinishi. Parcha davomida kesatqni ham kuzatishimiz mumkin. U "Uch pahlavonning tishi bir shaftoliga o'tmadi" frazemasini orqali ifodalangan. Bilamizki, shaftoli eng yumshoq meva, pahlavon esa jasur va kuchli inson. Shunday kuchli insonlarning uchtasining tishi shaftoliga o'tmasligi zamirida oddiy savolning javobini ham ayta olishmaganiga ishora mavjud. Bu frazema vositasida ifodalangan zaharxandalikning namunasidir. Salimovga "Lamarg" deya laqab berilishi esa kesatqning bir turi hisoblanadi.

Sho'ring qurg'ur Qosimov – uning har galgi mijozi: qaysi darsi bo'lmasin, dastavval shundan so'raydi; "Sinfning tayyorgarligini Qosimovdan bilaman", deydi. Qosimov esa biologiyaning oddiy mavzulariga ham fahmi yetmay xunob bo'lganidan tanaffus chog'lari Risolatdan qayta-qayta tushuntirishini o'tinib o'tiradi.

Keltirilgan parchada ham kesatqning bir ko'rinishi namoyon bo'lgan. "Uning har galgi mijozi" birikmasida bu holat kuzatiladi. Mijoz biror xizmatdan doimiy foydalanuvchi shaxs yoki biror mahsulotning doimiy xaridori. "Mijoz arabcha so'zdan olingan bo'lib, ruxsat etilgan, guvohnomasi bor degan ma'nolarni bildiradi. Mijoz I – 1. Sotuvchiga nisbatan doimiy xaridor va shu xaridorga nisbatan doimiy sotuvchi. 2. Biror ish-yumush bilan doim aloqada bo'lgan shaxs. Mijoz II – mijoz".¹⁹ O'qituvchining har galgi mijozi deya ta'riflanayotgan o'quvchi, demak, o'qituvchi tomonidan doimiy savolga tutiladi. Shuning uchun ham mijoz deya kesatq qilinmoqda.

Sinfxonimiz oftobro'yada joylashgani uchun derazadan tushayotgan yog'du Lamargning yaltiroq boshida sinib, o'ynaydi: ko'zni qamashtiradi. Qayoqdandir uchib kelgan daydi pashsha ana shu "favvora"ning o'rtasida maskan qurmoqchi bo'ladi, Lamarg esa uni shap etkazib urib qo'yadi:

- *He, egangni yegur!..*

¹⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 1-tom. 2006. – B. 492.

¹⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 366.

¹⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 589.

Ushbu parchada istehzoli kulgini kuzatishimiz mumkin. “Favvora” leksemasi vositasida yuzaga chiqqan mazmunni shama sifatida ham qabul qilishimiz mumkin. Bu orqali Lamargning boshi kal ekanligi ustidan kulgi qilinmoqda. Lamargning oftobda yaltirayotgan boshi favvoraga qiyos qilinmoqda. “Favvora arabcha soʻzdan olingan boʻlib, qaynab toshgan, koʻpirgan narsa, fontan degan maʼnolarni bildiradi. Favvora – 1. Kuchli bosim bilan yuqoriga otilib turadigan gaz, neft, suv, suyuqlik. 2. Suvni ana shunday harakatga keltiruvchi qurilma, inshoot; fontan”.²⁰

Baland koʻk eshik ochiladi-yu, bir daqiqa hech kim koʻrinmaydi. Nihoyat, tik qomatini tebrata-tebrata bir-bir bosganicha salobat bilan “bizning intelligent” Turobadze kiradi. U Risolatning partasi yonida toʻxtab, qoʻlidagi yagona anjomi – sinf jurnalini stolga uloqtiradi va toʻrt barmogʻini likillatib, dimogʻi bilan:

– *Bevosita oʻtirilsin! Jamoat jammi? – deydi.*

Avval ham taʼkidlab oʻtganimizdek, -adze qoʻshimchasini koʻp qoʻshib gapirgani uchun ham uni Turobadze deb atashadi. Bu leksema vositasida ironik munosabatning mazax shakli namoyon boʻlmoqda. Parchada keltirilgan “bizning intelligent” birikmasida esa kesatichni kuzatishimiz mumkin.

– *Sami Samadovich Samadze, - deb chaqiradi u sinfida ikki yil qolgan “ermagi”ni, shalvirab chakkasiga tushib turuvchi, silliq taralgan quyuyq sochlarini qoʻli bilan qulogʻi ortiga oʻtkazib tekislarkan. – Bu yoqqa chiqing, birodar. Siz bilan otamlashmasak, boʻlmaydiganga oʻxshaydi...*

Yuqoridagi jumlada ham ironik mazmun ifodalashning piching, kesatiq, istehzo kabi koʻrinishlarining guvohi boʻlishimiz mumkin. “Ermagi” leksemasida mazax, “otamlashmasak” leksemasida esa kesatiq va piching mazmuni yuzaga kelgan. Otamlashish iborasi, odatda, xalq orasida ichkilikka mukkasidan ketgan insonlar nutqida kuzatiladi. “Otamlashmoq – 1. Hasratlashmoq, yurakdagi dard-alamlarni oʻrtoqlashmoq. 2. Yozilib, miriqib, koʻngilli suhbat qilmoq, ulfatlashmoq”.²¹ Ermak leksemasiga shunday taʼrif beriladi: “Ermak – 1. Vaqtni koʻngilchogʻlik bilan yoki zerikmay oʻtkazish uchun xizmat qiladigan narsa, mashgʻulot. 2. Koʻngilga tasalli beradigan, ovutadigan narsa, kimsa; ovunchoq, yupanchiq. 3. Masxara, kulgi, mazax boʻlgan kimsa, narsa”.²² Otamlashmoq leksemasi orqali oʻquvchining darsga tayyor emasligi ishora mavjud.

Soʻng dars nasihatga aylanib ketadi; “yulduz turkumlari” bilan boshlangan nutq “o-o-o, bizlar oʻquvchiligimizda qandoq edig-a!” “qoʻshigʻi” bilan tugaydi.

Darsning nasihatga aylanib ketishi orqali shama mazmuni ifodalangan boʻlsa, “qoʻshigʻi” leksemasi vositasida kesatichni kuzatishimiz mumkin. Qoʻshiq – kuyga solingan sheʼr. Bu jumlada qoʻshiq leksemasi zamirida doimiy qaytariluvchi nasihat mazmunidagi nutq nazarda tutilgan.

Toʻgʻridagi kresloning doimiy sohibi – direktor Rahmonov egallagan. Oʻqituvchilarning ayrimlari stulga, baʼzilari divanga oʻrnashib olgan. Hammasining koʻzi “jinoyatchilar”da – bizlarda...

Sohib leksemasi biror narsaning kingadir tegishli boʻlishini ifodalaydi. Parchada ham “toʻgʻridagi kresloning doimiy sohibi” deya direktorga urgʻu berilmoqda. “Jinoyatchilar” leksemasi jinoiy ishga qoʻl urgan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Kimningdir molini oʻgʻirlash jinoyat, kimningdir joniga qasd qilish jinoyat, biroq bu yerda koʻzda tutilgan “jinoyatchilar” bunday jinoyatlardan mutlaqo holi. Ular maktab tartib-qoidalarini buzib, Hojiqulovning qoʻliga tushishgan. Ushbu leksema vositasida kinoya yuzaga chiqayotganini kuzatishimiz mumkin.

Erkin Aʼzamning “Kechirasiz, oʻrtoq muallim” asarlarida uchraydigan ironiyalar orqali shunday xulosa qilishimiz mumkin:

– Asarda uchragan ironiyalar, asosan, leksema yoki frazemalar orqali ifodalangan. Lekin oz boʻlsa-da fonemalar vositasida ifodalangan ironiyalarni ham kuzatishimiz mumkin.

– Ironik mazmun ifodalashning koʻproq piching, kesatiq, mazax, kulgi, kinoya, antiteza, sarkazm, masxara, shama, istehzo kabi vositalarini uchratishimiz mumkin.

– Ironiya turlaridan gradual ironiya qoʻllanilgan.

²⁰ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 4-tom. 2006. – B. 317.

²¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006. – B. 153.

²² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006. – B. 50.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 4-tom. 2006.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006.
5. Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.